

## AHOLIGA TABIIY OFAT-SUV TOSHQINI TO'GRISIDA MA'LUMOTLARNI YETKAZISH MEXANIZMI

**M.Ropiyev** - Buxoro viloyati FVB  
HFXO'M o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Uchbu maqolada suv toshqini, suv toshqiniga qarshi qanday tayyorgarlik ko'rish kerak, suv toshqini vaqtida qanday harakat qilish kerak, suv toshqinidan so'ng qanday harakat qilish kerak to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Jala, shamol, suv toshqini, dengiz sathi, tog' jinsi, muz parchalari, evakuatsiya, maxsus jomadon.

**Suv toshqini** - qor erishi, jala (kuchli yomg'ir), suvning shamol yordamida haydar kelinishi, muz bo'laklarining tiqilishi va boshqa holatlarda daryo, ko'l yoki dengiz suvlari sathining keskin ko'tarilishi oqibatida quruqlikning anchagina qismini suv ostida qolishi.

Suv toshqini ko'priq, yo'l, bino va inshootlarni vayron qilishi, katta moddiy zarar keltirishi mumkin. Suv tezligi soniyasiga 4 metrdan ortgan va suv qatlaming balandligi 2 metrdan oshgan hollarda odamlar hamda jonivorlar nobud bo'lishi mumkin. Vayronaliklarning asosiy qismini kelib chiqishi bino va inshootlarga suv massasining gidravlik zarba berishi bilan katta tezlikda muz parchalari, suzuvchi vositalarning turli bo'laklari va boshqalar kirib kelishi sabab bo'ladi. Suv toshqini to'satdan yuzaga kelib, bir necha soatdan 2-3 haftagacha davom etishi mumkin.

**Suv toshqiniga qarshi qanday tayyorgarlik ko'rish kerak?** Agar hududingiz suv toshqini xavfiga tez-tez uchrab tursa, u holda ehtimoliy suv toshish chegarasini, shuningdek yashash joyingizga yaqin bo'lgan tepaliklarni, ularga boruvchi eng yaqin yo'llarni o'rGANIB chiqing va esda saqlab qoling. Oila a'zolaringizni uyushgan va yakka evakuasiya talablari bilan, to'satdan keskin suv hajmi oshib boradigan hollarda to'g'ri harakat qilish qoidalari bilan tanishtiring. Qayiq, sol va ularni tayyorlash uchun ishlatiladigan qurilish materiallarining turgan joyini yodda tuting. Oldindan evakuasiya vaqtida olib chiqib ketiladigan hujjatlar, mol-mulk va dori-darmonlar ro'yxatini tuzib qo'ying. Maxsus jomadon yoki ryukzakka qimmatbaho buyumlaringiz, zarur issiq kiyim, oziq-ovqat zaxirasi, suv va dori-darmonlarni solib qo'ying.

**Suv toshqini vaqtida qanday harakat qilish kerak?** Suv toshqini xavfi yuzaga kelganligi va evakuasiya o'tkazish to'g'risidagi xabarni olgach, belgilangan tartibda xavfli hududdan xavfsiz xududga yoki tepaliklarga chiqing. O'zingiz bilan hujjatlar, qimmatbaho buyumlaringiz va uch kechakunduzga yetadigan oziq-ovqat mahsulotlarini oling. Manzilga yetib kelgach ko'chiriluvchilarni qabul qilish punktida ro'yxatdan o'ting.

Uydan chiqishdan oldin elektr, gaz tarmog'i va isitish pechlari dagi olovni o'chiring, binodan tashqaridagi suv olib ketishi mumkin bo'lgan barcha buyumlarni mahkamlang yoki ularni yordamchi binolarga joylashtiring. Vaqtingiz yetarli bo'lsa, qimmatbaho uy jihozlarini yuqori qavatlarga yoki chordoqqa olib chiqing. Deraza va eshiklarni yoping, zarurat bo'lsa va vaqt imkon bersa, birinchi qavatdagi deraza va eshiklarni tashqi tomondan taxtalar bilan qoqib qo'ying. Evakuasiya uyushgan holda o'tkazilmayotgan bo'lsa, yordam yetib kelgunga va suv sathi pasaygunga qadar yuqori qavatlar va binolar tomidan, daraxtlar va tepaliklardan joy egallang. Shu bilan birga muntazam halokat signalini berib boring (kunduz kuni uzoqdan yaxshi ko'rinaligan ochiq rangli matoni osib qo'yish yoki silkitish bilan, tunda - yorug'lik signali va ovoz bilan).

Qutqaruvchilar yaqinlashganda, suzuvchi vositaga o'ting. Bunda qutqaruvchilarning ko'rsatmalariga qat'iy amal qiling, suzuvchi vosita ustidagi yukning ko'payib ketmasligiga e'tibor bering. Harakat vaqtida o'rningizdan qimirlamang, qayiq chetiga o'tirmang, ekipaj a'zolarining talablarini bajaring. Suv ostida qolgan zonadan mustaqil ravishda chiqishga, faqatgina jiddiy sabablar (jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, suv sathining ko'tarilib borishi, yuqori qavatlar va chordoqlarni suv bosish xavfi) paydo bo'lganda tavsiya etiladi. Ammo ishonchli suzuvchi vosita bo'lsa, harakat yo'nalishini bilsangizgina shunday yo'l tutishingiz mumkin. Mustaqil harakat vaqtida halokat signalini berishni to'xtatmang.

Suvda qolganlar va cho'kayotganlarga yordam bering. Odam cho'kayotgan bo'lsa, unga suzuvchi vosita tashlang, harakatlarini qo'llab-quvvatlab turing, boshqalarni yordamga chaqiring. Jabrlanuvchiga yaqinlashar ekansiz, daryo oqimini hisobga oling. Agar cho'kayotgan odam o'z harakatlarini nazorat qilolmayotgan bo'lsa, unga orqa tomondan suzib borib sochidan ushlang va qirg'oqqa qarab suzing.

**Suv toshqinidan so'ng qanday harakat qilish kerak?** Binoga kirishdan avval, uning holatini tekshirib ko'ring. Xonalarni shamollating (gaz to'planib qolgan bo'lishi mumkin). Xonalarni to'la shamollatib bo'lmaquningizcha va gaz ta'minoti tizimini tekshirib ko'rmaquncha elektr yoritgichlarni yoqmang, ochiq olovdan foydalanmang, gugurt ishlatmang. Elektr simlari, gaz quvurlari, suv va maishiy chiqindi tarmog'inining sozligini tekshiring. Mutaxassislar bilan birgalikda ushbu tizimlarning sozligiga ishonch hosil qilmasdan ulardan foydalanmang. Xonalarni quritish uchun barcha eshik va derazalarni ochib tashlang, pol va devorlarni chiqindilardan tozalang, yerto'lalardagi suvni tortib chikaring. Nam tekkan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilmang.

Quduqlarni tozalab, ulardagi suvni chiqarib tashlang.

Xulosa qilib aytganda tinchlik davrda aholi o'rtasida favqulodda vaziyatlar turlari to'grisida bilim va ko'nikmalarni shakllantirib borish kerak. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakat kilish boyicha malakalarni amaliyotda

tadbiq etib borish kerak. Shundagina favqulodda vaziyatlarda talofatlar, qurbanlar, jabrlanganlar soni kamayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022- yil 17- avgustdagи 790-sон “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 1-iyundagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PF-5066-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabr kunidagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.